




№3
2024



ЎЗБЕКСТАН МАМЛЕКАТЛИК КОНСЕРВАТОРИЯСИ
НОКИС ФИЛИАЛИ

MUSIQ VA SAN'AT AJBO KOTNOHAB | БЕСТННН КУЗННН Н НОУОСНН | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI**

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ**

Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 3/2024

UYG‘UR MUSIQALI TEATRINING MARKAZIY OSIYODA PAYDO BO‘LISHI

Uzoqov D.S.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat insituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada uyg‘ur va o‘zbek xalqining madaniy aloqalari, uyg‘ur milliy madaniyatining Markaziy Osiyoda ommalashishi, shuningdek xalq ta’limi, folklor, badiiy san‘at, musiqa, raqs hamda teatr san’atining yuksak marralarga erishganligi, yetuk san‘at darg‘alari faoliyati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: teatr, ta’lim, millat, san‘at, madaniyat, spektakl, musiqali drama, ijod.

Аннотация: В данной статье рассматриваются культурные связи уйгурского и узбекского народов, популяризация уйгурской национальной культуры в Центральной Азии, а также высоких достижений в народном образовании, фольклоре, изобразительном искусстве, музыке, танце и театральном искусстве и о деятельности зрелых мастеров искусства.

Ключевые слова: театр, образование, нация, искусство, культура, спектакль, музыкальная драма, творчество.

Annotation: This article examines the cultural ties between the Uyghur and Uzbek peoples, the popularization of Uyghur national culture in Central Asia, as well as high achievements in folk education, folklore, fine arts, music, dance and theatrical art and the activities of mature masters of art.

Keywords: theater, education, nation, art, culture, performance, musical drama, creativity.

XX asrning boshlarida uyg‘ur va o‘zbek xalqi tarixida tub o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Bu ikki xalq o‘rtasida madaniy aloqalarning mustahkamlanishi, shuningdek uyg‘ur milliy madaniyati Markaziy Osiyoda ko‘zga ko‘rinarli darajada tus oldi. Jumladan, uyg‘urlar fan va ta’lim sohasida zamonaviy yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Bu uyg‘urlarning ijtimoiy madaniy tarziga katta ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, ularning etnik

xususiyatlarida ham qator o'zgarishlar kechkanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Qolaversa xalq ta'limi, folklor, badiiy san'at, musiqa, raqs hamda teatr san'atida ham yuksak marralar tomon olg'a qadam tashlay boshladilar. Andijon va Farg'ona vodiysining turli hududlarida uyg'ur maktablari klublari va ushbu muassasalar qoshida badiiy xavaskorlik to'garaklari tashkil qilindi. Tabiiyki, yangi bilim dargohlarining ilk bitiruvchi qaldirg'ochlari Markaziy Osiyoda uyg'ur san'atining rivoj topishida katta mas'uliyatga ega mutahassislar sifatida kamol topishi eng oliy maqsadlardan biri bo'lgan.

Aholini ro'yxatga olish bo'yicha 3000 ta uyg'ur millatiga mansub insonlar asosan Andijon shahri va tumanida, Asaka, Shahrixon, Izbosgan, Paxtaobod va boshqa tumanlarda istiqomat qilishi qayd etilgan. Shu munosabat bilan birinchi uyg'ur teatrini aynan Andijon shahrida tashkil qilish taklifi ma'qullanadi.

1930 yilda O'zbekistondagi uyg'urlar madaniy hayotida katta rol o'ynagan dargohlardan biri Andijondagi birinchi uyg'ur teatridir. Bu teatrning kelib chiqish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bunga sabab Andijonda uyg'ur millatiga mansub aholining ortib borganligi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Va nihoyat uyg'ur san'ati vakillarining uzoq kutilgan orzusi 1934 yili Andijon uyg'ur teatrining ochilishi O'zbekiston madaniyati tarixida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi, desak adashmagan bo'lamiz.



Andijon uygʻur teatrining birinchi rahbari sifatida Xusan Nazarov etib tayinlangan va teatr tarixida ilk marotaba 1935 yili D.Azimov hamda A.Sadirov hamkorligida “Anorxon” musiqali dramasi sahnalashtiriladi. “Anorxon” spektaklining birinchi premyerasida obrazli qahramonlardan Maryam Toʻxtayeva hamda Ahmad Soʻfiyevlar yuksak mahoratli ijrosi bilan tomoshabinlar koʻnglidan joy olishgan. Spektaklning kelgusi namoyishlarida nafaqat uygʻur tomoshabinlar, balki oʻzbek, tatar, ozarbayjon va boshqa millat vakillarini ham qalbiga yoʻl topishga ulgurganlar. Bu asar keyinchalik uygʻurlarning sevimli spektakliga aylanibgina qolmay, uzoq vaqt teatr repertuaridan mustahkam oʻrin egallagan.



Muvaffaqiyat choʻqqisidan ruhlangan uygʻur teatri xodimlari yozuvchi Abdulla Qahhor va kompozitor Toʻxtasin Jalilovga hamkorlik asosida yangi asar yaratish uchun buyurtma beradilar hamda 1936 yil ushbu taklif asosida yana bir yangi asar “Oyxon” musiqali dramasi teatr sahnasi yuzini koʻradi va shu bilan birga katta olqishlarga sazovor boʻladi. Yillar mobaynida yosh teatr artistlarining mahorati yuksak darajaga koʻtarilib bordi va shubhasiz, teatr jamoasi qobiliyatli, yosh hamda professional ijodkorlar bilan toʻlib bordi. 1938 yili Andijon uygʻur teatriga yetakchi yakkaxon balet ustasiga aylanishga ulgurgan raqqosa Zaynabxon Paltusheva va 1941 yil teatrga bosh rejissyor sifatida Jalol Asimov taklif qilinadi. Teatr jamoasining ahilligi, mehnatkashligi,

faolligi hamda fidokorona mehnatlarining samarasi natijasida 1943 yili Andijon uygʻur teatri – Respublika uygʻur teatriga aylantiriladi. Teatrning yirik sanʼat dargʻalariga aylangan rassom U.Moʻminov, artistlardan Rayxon Ibrohimova, Faya Mamatoʻxtayeva, Gʻulom Mamajonovlar yangi Respublika uygʻur teatrida oʻz faoliyatlarini davom ettiradilar.

Respublika uygʻur teatri maqomiga monand holda “Anorxon” musiqali dramasi rejissyor B.Azimov va rassom U.Moʻminovlar tomonidan qayta sahnalashtiriladi. Tomoshabinlar orasida shuhrat qozongan “Anorxon” musiqali dramasida Maryam Toʻxtayeva (Anorxon), Jalol Azimov (Hamro), Yulduz Usmonova (Gulzora), Rayxon Ibrohimova (Laylixon), Ahmad Soʻfiyev (Soʻfi Ohun), A.Abdulin (Said) va boshqalar katta olqishlarga sazovor boʻlganlar.



Respublika uygʻur teatri tomoshabinlari koʻnglidan joy olgan yana bir spektakl U.Xojibekovning “Arshin mol olon” musiqali dramasida J.Azimov Asqar rovida, Hojam Berdiyeva Gulchehra rovida, Asad Azimov Sulaymon rovida, F.Mamatoʻxtayeva Osiyo rovida, Boqi Islomov Sultonbek rovida oʻzlarining mahoratona ijrosi bilan alohida ajralib turganlar. Sobir Abdullaning “Tohir va Zuhra” spektaklidagi goʻzal, ajoyib dekoratsiyalar, yosh artistlarning gʻayrat-shijoati, yuksak mahoratga ega orkestr jamoasi

va xor ijrosi Respublika uygʻur teatrini Oʻzbekiston boʻylab yetakchi badiiy jamoalardan biri sifatida tan olinishiga sabab boʻladi.

Shu bilan birga, teatr jamoasi oʻz ijodlarini keng targʻib qilish maqsadida nafaqat Oʻzbekistonning turli hududlarida, balki Qirgʻiziston, Qozogʻiston respublikalarida madaniy aloqalarni mustahkamlovchi tarixiy iz qoldirdilar. Yildan-yilga teatr repertuari yanada boyib, “Gʻarib va Sanam”, “Tohir va Zuhra” kabi spektakllar tomoshabinlar sonining keskin oshishiga sabab boʻldi.

Keyinchalik, Respublika uygʻur teatri ijodining yuksak marralarga erishganligi munosabati bilan ushbu sanʼat makoni I.Ohunboboyev nomidagi Andijon oʻzbek musiqali drama teatriga aylantiriladi.



Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, Andijon uygʻur musiqali drama teatri oʻzining qisqa tarixiga qaramay, shubhasiz uygʻur teatr sanʼati rivojiga munosib hissasini qoʻshishga muvaffaq boʻldi, desak adashmagan boʻlamiz. Shuningdek, oʻz mehnati bilan yoʻqdan bor qilib, toʻxtamay ijod qilishda davom etgan haqiqiy uygʻur sanʼati shinavandalari uzoq yillar mobaynida oʻz qadr-qimmatlarini yoʻqotmadilar va Markaziy Osiyoga yangi bir ruhni olib kirdilar, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Uygʻur

san'ati vakillariga ulkan ijodiy parvozlar yor bo'lishini hamda madaniy aloqalar barhayot bo'lishiga tilakdoshmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.B.Haynazarov. O'zbekiston uyg'urlari diasporasi tarixi (1925-2012 yy.): Dis. ...Tar.fan.fal.dok.; O'zbekiston milliy universiteti. – Toshkent, 2018. – B.150.
2. D.A.Kavilova. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: Dis. ...Ped.fan.fal.dok.; Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. – Toshkent, 2022. – B.136.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Allanbaev R.O. QOSÍQSHÍLIQTÍN BÚGINGI KÜNDEGI ÁHMIYETI.....	3
2	Kulchigayeva M. QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA	10
3	Charshemov J., Muratbaeva R. JANA RUXTAGÍ XALÍQ QOSÍQLARÍ.....	16
4	Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI	22
5	Abatbaeva R. QORAQALPOQ MUSIQA SAN‘ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI.....	28
6	Rasbergenova X.S. MUSIQANING INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....	38
7	Abdisultanov J. QARAQALPAQ MUZÍKASINDAGÍ JANRLÍQ ÓZGESHELIKLER (QARAQALPAQ MUZÍKALÍ DRAMALARDÍN PAYDA BOLÍWÍ HÁM RAWAJLANÍWÍ).....	43
8	Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINÍN GARMONIYASÍ.....	49
9	Zuxurov M. VIOLONCHEL SAZ ASBABINÍN KELIP SHÍGIWI, ORKESTR HÁM KAMER ANSAMBLERINDE TUTQAN ORNI.....	54
10	Uzoqov D.S. UYG‘UR MUSIQALI TEATRINING MARKAZIY OSIYODA PAYDO BO‘LISHI.....	59

KÓRKEM ÓNER

11	Mamutov P.A. KOMPOZITOR HIKMAT RAJABOV ÓMIRI HÁM DÓRETIWSHILIGI HAQQÍNDA.....	65
12	Abdikarimova I. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASINDAGÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ.....	71
13	Sobirjonov A. O‘ZBEK OPERA XONANDALIGIGA VA MILLIY QO‘SHIQCHILIGIGA ERGASH YO‘LDOSHEVNING QO‘SHGAN HISSASI.....	76
14	Saidxonov A.S. XX ASR YANGI VENA MAKTABI IJODKORLARI TARIXNING YANGICHA KO‘RINISHI.....	80
15	Dauletbaev T.Q. QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN‘ATINING RIVOJIDA G‘AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI....	90
16	Matimuratov S. QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍN TUTQAN ORNÍ...	95
17	Ońgarbaeva L. CHANG SAZ ÁSBABINÍN TARIYXÍ HÁM USTAZ ATQARÍWSHÍLARÍ.....	100
18	Sharipov A.Sh. XONANDALIKDA IJROCHILIK TAMOYIL VA ME‘ZONLARI.....	106

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

19	Rajabov X.J. QASHQAR RUBABI BASLANG'ISH SABAQ BARISINDAGÍ TÁLIM MASHQALALARI TIYKARINDA.....	110
20	Abatbaeva U.A. ART-PEDAGOGIKALIQ HÁM ART-TERAPEVTIKALIQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARINDA BASLANG'ISH KLASS OQIWSHILARIN ESTETIK TÁRBIYALAW MODELÍ.....	118
21	Jumaniyazov O'. O'QUVCHILARGA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY RISOLALARINING AHAMIYATI.....	125
22	Любимцева В.С. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ.....	131
23	Matjanova M. OQIWSHILARDÍ ESTETIK TÁRBIYALAWDA ÁMELIY QOLLANIW METODLARÍ, FORMA HÁM QURALLARI...	136
24	Jumabaev A. NOTA OQIW TÁJIRIYBESINDE ATQARIWSHILIQ KÓNLIKPELERIN ÓZLESTIRIW HÁM QÁLIPLESTIRIW.....	143
25	Раджабова Н. АКТИВИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТОНАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЕЛОДИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СОЛЬФЕДЖИО....	149
26	Mutalov D.A. YOSHLARNING MA'NAVIY SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O'RNI.....	154

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

27	Palimbetov K.S. QARAQALPAQ XALÍQ DÁSTÚR FOLKLORÍNÍN ÚYRENILIW MÁSELESÍ.....	160
28	Bekbergenova Z. 1990-2000-JÍLLARDAĞÍ QARAQALPAQ AMATURGIYASÍ HAQQÍNDA	168
29	Marziyayev J.K. EKOLOGIK MADANIYAT VA UNI SHAKLLANTIRISH: EKOLOGIK MUAMMONI OLDINI OLISHNING BIR USULI SIFATIDA.....	176
30	Sadenova G.P. KÓRKEM SHÍĞARMALARDA EPITETTÍN QOLLANÍLÍW ÓZGESHELIKLERI HÁM USÍLLARÍ.....	181